

# **Uzbekistan Airways Moskvaga qo'shimcha aviaqatnovlarni yo'lga qo'ymoqda**

**2022 2 January**

Uzbekistan Airways 2022-yil 6-fevraldan boshlab Moskvaga Toshkent, Nukus, Urganch va Termiz shaharlaridan qo'shimcha qatnovlarni yo'lga qo'yadi.

Toshkent - Moskva - Toshkent yo'nalishidagi aviaqatnovlar haftasiga uch marotaba - yakshanba, dushanba va payshanba kunlari amalga oshiriladi.

Nukus - Moskva - Nukus yo'nalishidagi qatnovlar yakshanba, Urganch - Moskva - Urganch payshanba, Termiz - Moskva - Termiz yo'nalishida parvozlar dushanba kunlari amalga oshiriladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin